

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

<b>«KELISHILGAN»</b>	
Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekanat Sh. Imoyatov 2024 y.	O'quv ishlari bo'yicha: prorektor R.G. Jumayev 2024 y.

5210200 - Psixologiya (sport) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari  
uchun ixtisoslik fanlaridan  
Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon

**DASTURI**




**Ixtisoslik fanlari:**





- 2.07. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati
- 3.01. Sport psixologiyasi
- 2.04. Umumiy psixologiya
- 3.03. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi

## ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatlil ta'lim yili"da ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirish maqsadida jadal islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, jamiyatimizda yoshlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish - birinchi darajali ahamiyatga egadir. Shu bois, "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish - o'ta sharafli vazifadir. Shunday ekan yuksak malakali kadrlarni tayyorlash va ularni kerakli bilimlar bilan qurollantirish maqsadida jismoniy tarbiya va sportning jamiyatdagi o'rini yanada mustahkamlash, qolaversa, hozirgi kunda mamlakatimiz sportchilarining erishayotgan yutuqlari, sportchilarni ruhiy tayyorlashning o'ziga xos yo'llari hamda xususiyatlari to'g'risidagi bilimlarini oshirish va takomillashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:		I.J. Qurbonov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi
		I.Ya. Olimov Psixologiya va sotsiologiya professori
		N.Z. Jumayev Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti

Taqrizchilar:		Sport faoliyati va pedagogika fakulteti dekani A.Sh. Inoyatov
		G.M. Salimov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida professori, p.f.n.
		Q.P. Arslonov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida professori
		Q.P. Arslonov Sport nazariyasi va metodikasi kafedrasida professori

Imtihon dasturi Buxoro universitetining Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

2024 yil 30. 03 dagi 8 - sonli bayonnoma

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 16 noyabrda № 1963-3 son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 10 noyabrda № 38-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida NIZOM"ga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi № 38-2021-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.

## Muqaddima

### I. Umumiy qoidalar

### II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari

### III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi

### IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

### V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks baholash;

yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyatini natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjatlarga tayangan holda olib boradilar.

## II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) o'quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat:

xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiya sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan o'tkazilishi mumkin);

ta'lim yo'nalishi bo'yicha fanlararo (majburiy fanlar) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;

diplom loyihasi himoyasi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha malaka talablarida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasini majburiy fanlardan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yoki diplom loyihasi himoyasi yoxud bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi shaklida o'tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta'lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi qo'shimcha sifatida kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy bo'lim (boshqarma) tomonidan tayyorlangan, oliy ta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

9. Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tajribali professor-o'qituvchilarni jalb etgan holda yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va baholash mezonlari ishlab chiqiladi hamda oliy ta'lim muassasasi Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan kamida uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi.

### III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYALARI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar kafedra mudiri tomonidan tasdiqlash uchun oliy ta'lim muassasasi rektoriga taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim muassasasida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarishning tajribali mutaxassislaridan tegishli oliy ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari rahbarligida oliy ta'lim muassasasi rektori bilan birgalikda xorijiy til bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (oliy ta'lim muassasasi Kengashi qaroriga asosan) va (yoki) ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ishi (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yoki majburiy fanlardan

yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiyasi komissiyasi umumiy tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxonalar, tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining etakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vaziylik kengashi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jarayoni onlayn rejimida ovozli videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

15. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiyasi sinovlarining biri bo'yicha bitta rais rahbarligida bir nechta yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi vakillari ishtirok etishlari mumkin.

Oliy ta'lim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassislik bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi ushbu oliy ta'lim muassasasining yuqori turuvchi vazirlik (idora) tomonidan tashkil etiladigan davlat attestatsiyasi komissiyasi tomonidan o'tkaziladi.

### IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari bilan oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorgarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizam to'g'risida yig'ilish o'tkaziladi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma, test yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lim muassasasi Kengashi qarori asosida ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar sinov o'tkaziladigan fanlar dasturlari bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tegishli ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestastiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari va diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya sinovi yakuniy davlat attestastiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan holda, rais ishtirok etmagan taqdirda rais o'rinbosari raisligida o'tkaziladi.

Diplom loyihasi yoki bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertastiyasi) himoyasi yoxud majburiy fanlardan yakuniy davlat attestastiya sinovi ishlab chiqarish bazasida tashkil etilgan kafedra filiallarida sohaning etakchi mutaxassislarini jalb etgan holda o'tkazilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestastiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestastiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestastiyasiga kiritilgan barcha turdagi attestastiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestastiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestastiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestastiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestastiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestastiyasi tarkibiga kiritilgan yakuniy davlat attestastiya sinovidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

22. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish ko'rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo'lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestastiyasi sinovlari bo'yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga «imtiyozli» diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestastiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestastiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestastiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim muassasasi rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestastiya sinovini keyingi har bir o'quv yilida (3 yil davomida) 2 martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Yakuniy davlat attestastiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

24. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovidan keyingi 3 yil davomida qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnoma beriladi va u o'rnatilgan tarixda to'lov-kontrakt asosida tegishli bitiruv kursiga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestastiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorining buyrug'i bilan yakuniy davlat attestastiya komissiyasining ish yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestastiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestastiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim muassasasi rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyastiya komissiyasi tuziladi. Apellyastiya komissiyasi oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyastiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek tegishli sohaning malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim muassasalarining tajribali professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 kishidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Apellyastiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasi ishida ishtirok etgan shaxslarning kiritilishi taqiqlanadi.

28. Yakuniy davlat attestastiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan noroz bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestastiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyastiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyastiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestastiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestastiyasi komissiyalari raislari taklif qilinadi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

31. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

32. Ushbu Nizom O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, "O'zbekiston temir yo'llari" DAK, Davlat soliq qo'mitasi, Badiiy akademiya, Navoiy ko'metallurgiya kombinati, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan kelishilgan.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modd.

5210200 - Psixologiya (sport) ta'lim yo'nalishida ixtisoslik fanlardan  
Yakuniy davlat attestatsiya sinovi yozma ishlarini  
BAHOLASH MEZONILARI

Yozma ish uchun 4 tadan savol tuziladi va har bir savolga "0" balldan "25" ballgacha baholanadi.	20-25-ball	Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savolning har birini mohiyatini tushunishi, bilishi, tasavvurga ega bo'lishi lozim. Uni ilmiy asoslagan holda ijodiy fikrlab, mustaqil mushohada yuritib, imloviy xatosiz yoritib berishi hamda shu sovellarda berilgan ma'lumotlarni taqqoslay olishi, xulosa va qarorlar chiqargan holda, amalda qo'llay bilihi kerak. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga maksimal 100 ball (4x25 ball) qo'yiladi. Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatgichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi (har bir savol uchun): 20-25 ball uchun talabani bilim darajasi qo'yidagilarga javob berishi lozim: xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	Umumiy ball - 100 ball
	15-20 ball	Talaba berilgan yozma ishdagi 4 ta savol to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lishi lozim. Savolni mohiyatini tushungan holda mustaqil mushohada yuritib, savol mazmunini yoritib berishi kerak. Berilgan ilmiy ma'lumotlarni o'zaro taqqosga qiyinaladi, xulosalar yakuniga yetmagan. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 20 ball (5x4 ball) qo'yiladi. 15-20-ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; • mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bulish.	86-100-ball. A'lo, (86-100 %).
	10-15 ball	Talaba yozma ishdagi 4 ta savolni mohiyatini tushunishi, tasavvurga ega bo'lishi, qisman bilishi hisobga olinadi. Ilmiy ma'lumotlar qisman yozilgan, bu ma'lumotlar asosida mustaqil fikr va xulosalar yurita olmaydi. Talaba 4 ta savolga ham shu mezon asosida javob bergan bo'lsa, yozma ishga 15 ball qo'yiladi. 10-15-ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim; • mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.	71-85-ball. yaxshi (71-85 %).
	5-10-ball	Talaba 4-ta savolning mohiyatini qisman tushunsa, ilmiy ma'lumotlarni yozishda xatoliklarga yo'l qo'ysa. Mustaqil fikr va xulosalar yoritilmagan bo'lsa, yozma ishga jami 10 ball qo'yiladi.	55-70-ball. Qoniqarli, (55-70 %)
	0-5 ball	Talaba 4-ta savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yurita olmasa, yozma ishga jami 5 ball qo'yiladi.	0-54 ball. Qoniqarsiz, (0-54 %)

I.Fanning mazmuni

Fanning o'qitish maqsadi - jismoniy tarbiya asoslarining chuqur nazariy anglanishini ta'minlash, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha pedagogning kasbiy faoliyatidagi asosiy nazariy-usuliy qoidalarini amalga oshirish malakasini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi- jismoniy tarbiya va sport faoliyatining nazariy qoidalarini o'rganish, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va uslubiyatining tushunchalarini o'rganish, jismoniy tarbiya va sportning vosita va usullarini o'zlashtirish, jismoniy tarbiya va sportning tashkiliy shakllarini o'rganish; tayyorgarlik fanlari tizimida jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda uslubiyatining integratsiyalovchi roli to'g'risida tasavvur hosil qilish; amalda harakat faoliyatlarini o'rganish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, bilimlarni shakllantirish nazariyasi va uslubiyatini qo'llashga o'rgatish.

1-mavzu. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati fanining predmeti.

Maqsad va vazifalari. Asosiy tushunchalari

Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati fani o'quv predmeti sifatida Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining asosiy tushunchalariga ta'rif "Jismoniy madaniyat", "Jismoniy tarbiya", "Jismoniy rivojlanish", "Jismoniy tayyorgarlik", "Sport", "Jismoniy madaniyat tizimi". Jismoniy madaniyatning maqsadi va vazifalari. Jismoniy madaniyat nazariyasining oliy jismoniy ta'lim tizimidagi o'rni.

2-mavzu. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati fanining rivojlanish tarixi hamda uning boshqa tarbiya turlari bilan aloqadorligi

Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati fani o'quv predmeti sifatida boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari. Jismoniy tarbiya jarayonida aqliy tarbiya. Aqliy tarbiyaning vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari. Aqliy tarbiya uslublari. Ahloqiy tarbiya. estetik tarbiya. estetik tarbiyaning mazmuni. Mehnat tarbiyasi. O'z-o'zini tarbiyalash.

3-mavzu. Jismoniy tarbiyaning jamiyatdagi asosiy funktsiya va shakllari

Jismoniy tarbiyada milliy qadriyatlarning tutgan o'rni. Jismoniy tarbiyaning jamiyatdagi umumiy funktsiyalari: estetik funktsiya, normativ funktsiyasi, axborot funktsiyasi. Jismoniy tarbiyaning jamiyatdagi maxsus funktsiyalari: ta'lim va tarbiya funktsiyasi, amaliy funktsiya, sport funktsiyasi, rekreativ va sog'lomlashtirish-reabilitatsiya funktsiyasi. Jismoniy tarbiyaning jamiyatdagi asosiy komponentlari va shakllari. Jismoniy tarbiya bazasi. Sport. Kasb-amaliy jismoniy madaniyati. Sog'lomlashtirish qayta tiklash jismoniy madaniyati.

4-mavzu. Jismoniy tarbiyaning vositalariga tavsif

Jismoniy tarbiya vositalarining umumiy tavsifi. Jismoniy mashqlarning kelib chiqishi va mohiyati. Jismoniy mashqlarning ta'sirini belgilaydigan omillar.

Jismoniy mashqlarning mazmuni va shakli. Texnika. Texnikaning asosi, zvenolari va detallari. Jismoniy mashqlarning turkumlanishi. Tabiatning sog'lomlashtiruvchi kuchlari. Gigiyenik omillar.

#### **5-mavzu. Jismoniy tarbiyaning umumpedagogik uslublari**

Jismoniy tarbiyaning umumpedagogik vositalariga tavsif. Ta'limning uslublariga qo'yilgan umumiy talablar So'z uslubi. Ko'rgazmalilik uslubi.

#### **6-mavzu. Jismoniy tarbiyaning maxsus uslublari**

Jismoniy tarbiyaning maxsus uslublariga umumiy tavsif. O'yin uslubi. Musobaqa uslubi. Qat'iy tartiblashtirilgan mashq uslubi. Harakatlarni o'rganish jarayonida qismlarga bo'lib bajariladigan mashq uslubi, yaxlit mashq uslubi. Harakat malakalarini takomillashtirish va jismoniy sifatlarni tarbiyalash jarayonidastandart mashq uslubi va o'zgaruvchan mashq uslubi, kombinatsiyalashtirilgan mashq uslublari, uzluksiz mashq uslubi bo'yicha aylanma mashg'ulot, intervallimashq uslubi bo'yicha aylanma mashg'ulot.

#### **7-mavzu. Jismoniy mashqlarni bajarishda yuklama va dam olishning o'zaro bog'liqligi**

Jismoniy yuklama. Yuklamani me'yorlash. Yuklamaning hajmi, shiddati. Yuklama va dam olishni to'g'ri navbatlash. Jismoniy tarbiya jarayonida yuklama samarasining miqdor va sifat jihatdan dam olish shart sharoitlarga bog'liqligi. Faol va sust dam olish. Charchash va qayta tiklanish jarayoni. Topshiriqlarni murakkablashtirish shartlari va yuklamani oshirish shakllari. Yuklamaning to'g'ri chiziq bo'ylab oshib boruvchi, bosqichma-bosqich oshib boruvchi, to'lqinsimon shakllari.

#### **8-mavzu. Jismoniy tarbiyaning umumiy va uslubiy tamoyillariga tavsif**

Jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillariga tavsif. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish tamoyili. Jismoniy tarbiyaning mehnat va harbiy amaliyot bilan aloqasi tamoyili. Jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirishga qaratilganlik tamoyili. Jismoniy tarbiyaning uslubiy tamoyillariga tavsif. Onglilik va faollilik, ko'rsatmalilik, bajara olish va individuallashtirish, muntazamlilik, taraqqiyot (talablarni asta-sekinlik bilan oshirib borish) tamoyillari.

#### **9-mavzu. Harakat faoliyatini shakllantirishning qonuniyatlari**

Harakatlarga o'rgatish jarayonining asoslari. Ko'nikma va malakani shakllantirish ta'lim jarayoni sifatida. Tushuncha va terminlar. Harakatni bajara olish. Harakat faoliyatini shakllantirish tizimi. Harakat malakasi dasturining shakllanishi. Harakat malakalarida dinamik stereotipning yuzaga kelish. Harakat malakasining shakllanishida ekstrapolyatsiyaning o'рни. Harakat malakalarining shakllanish fazalari. Malakaning ko'chishi. Malakaning ijobiy va salbiy ko'chishi. Harakatni oliy tartibda bajara olish.

#### **10-mavzu. Harakatlarga o'rgatish jarayoni bosqichlarining xususiyatlari va tuzilishi**

Harakat faoliyatiga o'rgatish jarayoniga tavsif. Dastlabki o'rganish. Chuqurroq o'rganish. Harakatlarni bajarish malakasini mustahkamlash va yanada takomillashtirish. O'rgatish jarayonlarining vazifalari. O'rgatish jarayonlarining uslub va tamoyillar bilan o'zaro aloqasi.

#### **2-Modul. Jismoniy sifatlarning umumiy tavsifi va ularning shug'ullanuvchilar tayyorgarligidagi o'rni**

#### **11-mavzu. Jismoniy sifatlarning umumiy tavsifi va ularni rivojlantirishni nazorat qilish**

Jismoniy sifatlarga umumiy tavsif. Jismoniy sifatlarning to'g'risida tushuncha. Jismoniy qobiliyatlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlari. Jismoniy qobiliyatlar rivojlanishining bosqichlilik. Qobiliyatlar rivojining notekis va geteroxronligi (turli vaqtga mansubligi). Jismoniy qobiliyatlarning ko'chishi. Jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishda yosh xususiyatlari. Jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish tamoyillari

#### **12-mavzu. Koordinatsion qobiliyatlarni tarbiyalash**

Insonning muvofiqlik layoqatlariga tavsif. Chaqqonlikni tarbiyalash uslubiyatining asoslari. Chaqqonlik tushunchasiga ta'rif. Chaqqonlikni oshirishga qaratilgan yuklamalarning o'zgarishi. Chaqqonlikni tarbiyalash uslubiyati.

#### **13-mavzu. Tezkorlik qobiliyatini tarbiyalash**

Tezkorlik tushunchasiga ta'rif. Oddiy va murakkab reaksiya. Tezkorlikning fiziologik va biokimik asoslari. Oddiy reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Analitik yondoshish uslubiyati. Sensomotor uslubiyati. Murakkab reaksiya tezkorligini tarbiyalash. Harakatdagi ob'ektga bo'ladigan reaksiya va tanlash reaksiyasi. Tezkorlikni tarbiyalashning vosita va uslublari.

#### **14-mavzu. Egiluvchanlik qobiliyatini tarbiyalash**

Egiluvchanlik tushunchasiga ta'rif. Egiluvchanlikning namoyon bo'lishini muhitning tashqi temperaturasiga bog'liqligi. egiluvchanlikni tarbiyalash uslubiyati. Faol va sust egiluvchanlik. egiluvchanlikni rivojlantirish uchun beriladigan mashqlar.

#### **15-mavzu Jismoniy tarbiya jarayonida tana vazni va qaddi-qomatni shakllantirish**

To'g'ri qaddi-qomatni shakllantirish. Jismoniy kamolotga erishishda to'g'ri qaddi-qomat shakllanish ahamiyati. To'g'ri qaddi-qomat holatiga ta'sir etuvchi omillar. To'g'ri qaddi-qomatning buzulishi. Jismoniy tarbiya vositalari yordamida qaddi-qomat buzilishining oldini olish. To'g'ri qaddi-qomat shakllanishining vazifalari, vositalari va usullari. Qaddi-qomat buzulishini tuzatishning asosiy uslublari. Jismoniy tarbiya tizimida ko'p yillik va alohida darslarda qaddi-qomatni shakllantirishda jismoniy mashqlarni qo'llash.

Jismoniy tarbiya orqali tana vaznini barqaror ushlash. Tana vaznini ortish omillari.

Tana vaznini boshqarishning asosiy uslublari.

### 16-mavzu. Kuch qobiliyatini tarbiyalash

Kuch tushunchasiga ta'rif. Kuch namoyon bo'lishi sharoitlariga kuchning bog'liq ekanligi. Insonning jismoniy fazilati sifatidagi kuchning turlari. Portlovchi kuch. Muskul kuchi va sportchining vazni. Kuch mashqlarini bajarishdagi ba'zi talablar. Kuch mashqlarini bajarishda gavda holatining ahamiyati. Kuch qobiliyatini tarbiyalash uslubi.

### 17-mavzu. Chidamlilikni tarbiyalash

Tushunchaning ta'rif. Charchoq va chidamlilik. Chidamlilikning turlari. Nafas olish va chidamlilik. Turli intensivlikdagi siklik mashqlarda chidamlilikni tarbiyalash xususiyatlari. Yakkama-yakka bahslashuv va sport o'yinlarida chidamlilikni tarbiyalashning xususiyatlari. Chidamlilikni tarbiyalashning vosita va uslublari.

### 3-Modul. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va sport

#### 18-mavzu. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi

Ma'ruzada ilk va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy pedagogik ahamiyati, vazifalari va me'yorchilik asoslari, jismoniy tarbiyaning majburiy kurs ekanligi, jismoniy tarbiya dasturida ko'rsatilgan vositalar tarkibi va yoshlik davrlariga qarab ularning farqlanishi o'rgatish va bilan birga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya bo'yicha ish shakllarini, bolalar o'rtasida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya haqida ma'ruzalar va musobaqalar tizimini yoritib berish lozim.

#### 19-mavzu. Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi

Ma'ruzani yoritishda umumiy o'rta ta'lim maktab tizimida jismoniy tarbiya majburiy kurs ekanligi; Maktab o'quv rejasi bo'yicha jismoniy tarbiyaning umumiy kursi; Maktabda jismoniy tarbiya mashg'ulotining dastur mazmuniga ko'ra dars shakli; Maktab jismoniy tarbiya darslarining tuzilishi, dastur materiallari va o'quvchilarning yoshlik xususiyatlariga ko'ra darslarining turlarini o'rgatishdan tashqari, maktabda jismoniy tarbiya darslarining tuzilishi, dastur materiallari va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra darslarning turlarini va darslarda shug'ullanuvchilarning faoliyatini tashkil etish va boshqarish uslublari ko'proq misollar orqali tushuntirish zarur.

#### 20-mavzu. Jismoniy tarbiya darsi mashg'ulotlarning asosiyshakli sifatida, uning tuzilishi

Ma'ruzani talabalarga yoritib berishda jismoniy tarbiya darsi olib boriladigan mashg'ulotlar orasida asosiy ekanligini. Maktab o'quvchilarning jismoniy tarbiyasining vazifalari, mashg'ulotlarning asosiy shakllari va ularning tuzilishi. Jismoniy tarbiyaning vositalari, darsni tashkil qilish usullarini o'rgatish. Maktablarda jismoniy tarbiya darslarning tuzilishi va o'tkazish uslubiyatini

talabalarga yoritib berish zarur.

#### 21-mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish shakllari

Ma'ruzani yoritib berishda jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, yuklamalarni me'yorchilik qoidalarini o'quv yilida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishni o'rgatish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish usullarini misollar bilan tushuntirish lozim bo'ladi.

#### 22-mavzu. Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan jismoniy tarbiya tizimi

Ma'ruza davomida "Dars, darsdan tashqari shakllar" to'g'risida ko'rsatma berish umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiyaning darsdan va sinfdan tashqari shakllari. Mashg'ulotga kirish, gimnastika, harakatli daqiqalar (fizkultminutka), katta tanaffusdagi o'yinlar, kuni uzaytirilgan guruhlarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish asoslarini o'rgatish kerak.

#### 23-mavzu. Jismoniy tarbiya bo'yicha maktab dasturi va asosiy rejalashtirish hujjatlarining tavsifi

Ma'ruza davomida ko'proq davlat hujjatlariga, dastur bo'limlariga talabalarining e'tiborini qaratish, jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish, yuklamalarni me'yorchilik qoidalarini o'quv yilida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishni o'rgatish kerak bo'ladi.

O'quv vaqtlari va dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvali. Yillik ish rejasi. O'quv materiallarini chorak soatlariga taqsimlash yillik jadvali. Chorak uchun ish rejalarini tushuntirish kerak bo'ladi. Dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvalini doska yordamida tushuntirish, dastur bo'limlarga alohida tavsif berish lozim.

#### 24-mavzu. Maktab jismoniy tarbiya kursining yillik reja-grafigini ishlabchiqish texnologiyasi asoslari

Ma'ruza davomida o'quv vaqtlari va dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvali. Yillik ish rejasi. O'quv materiallarini chorak soatlariga taqsimlash yillik jadvali. Chorak uchun ish rejalarini tushuntirish kerak bo'ladi. Dastur bo'limlarini choraklarga taqsimlash yillik jadvalini doska yordamida tushuntirish, dastur bo'limlariga alohida tavsif berish lozim.

#### 25-mavzu. Har bir darsning ishchi rejasini tuzish uslubiyati

Ma'ruza davomida yil davomida va har bitta chorak uchun dars oldiga vazifalar qo'yib, ish rejasini tuzish texnologiyasini tushuntirish bilan birga har-bir sinf uchun dars mashg'ulotlarini olib borishni tavsiya etiladi.

#### 26-mavzu. Jismoniy tarbiya bo'yicha dars konspektini tuzish uslubiyati

Ma'ruza davomida ko'proq dars konspektining to'g'ri yozilishiga va uning mazmuniga, dars oldiga qo'yiladigan vazifalarni aniq qo'yishga talabalarining

e'tiborini qaratishi lozim.

**27- mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida pulsometriya olib borish uslubiyati**  
Ma'ruza davomida pulsometriya (jismoniy yuklamalarning organizmga ta'sirini aniqlash)ning qo'llanilishi, o'qituvchining tarbiyaviy ishlari, o'quvchilarning xulqi, darsni umumlashtirish haqida ma'lumotlar berish zarur.

**28- mavzu. Jismoniy tarbiya darslarida xronometraj olib borish uslubiyati**  
Ma'ruza davomida xronometraj (darsning umumiy va motor zichligi)ning qo'llanilishi, o'qituvchining tarbiyaviy ishlari, o'quvchilarning xulqi, darsni umumlashtirish haqida ma'lumotlar berish zarur.

**29- mavzu. Jismoniy tarbiya darsida pedagogik tahlil o'tkazish uslubiyati**  
Ma'ruza davomida jismoniy tarbiya darslarini pedagogik tahlil qilish uslublari; o'qituvchining darsga tayyorgarligi, darsni tashkil etish, o'rgatish uslublarining qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berish, o'qituvchining tarbiyaviy ishlari, o'quvchilarning xulqi, darsni umumlashtirish va xulosalar chiqarish zarur.

**30- mavzu. O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimlarida jismoniy tarbiya**  
Ma'ruza davomida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida tahsil oluvchi yoshlarning jismoniy tarbiya darslarini rejalashtirish va shu orqali jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish uslublari haqida ma'lumot berish lozim.

#### **4-Modul. Jismoniy tarbiya ko'p yillik tizim sifatida**

**31- mavzu. Kasb-amaliy jismoniy tayyorgarlik tizimida jismoniy tarbiya**  
Kasb-amaliy jismoniy tayyorgarlik tushunchasiga ta'rif. Kasb-amaliy jismoniy tayyorgarlikning maqsadi va vazifalari. Kasb-amaliy jismoniy tayyorgarlikning vositalari. Amaliy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulot shakllari. Ba'zi bir kasb egalarining kasb-amaliy jismoniy tayyorgarligi.

**32- mavzu. Mehnatni ratsional tashkil qilish tizimida jismoniy tarbiya**  
Mehnatni ilmiy tashkil qilish tizimida jismoniy tarbiyadan foydalanish. Ishlab chiqarish jarayonida mashg'ulot shakllari mazmuni vosita va uslublarining xususiyati. Jismoniy tarbiya mehnatkashlarning kundalik turmush tarzini optimallashtiruvchi vosita sifatida.

#### **3- mavzu Keksa yoshdagilar jismoniy tarbiya**

Keksa yoshdagilar organizmidagi o'zgarishlar. Keksa yoshdagilar jismoniy tarbiyasining maqsadi, vazifalari, shakli, foydalanish uslubiyati va tuzulishi. Keksa yoshdagilarni jismoniy-sog'lomlashtirish tizimida pedagogik, tibbiy va o'zini-o'zi nazorat qilish.

**33- mavzu Sog'lomlashtirish jismoniy tarbiyaning nazariy-uslubiy asoslari.**  
Sog'lomlashtirish mashg'uloti tuzulishining asoslari. Maxsus sog'lomlashtirish vositalarining yo'naltirish xususiyatlari. Jismoniy- sog'lomlashtirish xususiyatining

tizimi va uslubiyati. Sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik va salomatlik darajasini baholash.

#### **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari Asosiy adabiyotlar**

1. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 tom. Darslik. ITA-PRESS. T.-2014 220 b.
2. Salamov R.S. Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. 2 tom. Darslik. ITA-PRESS. T.-2015 210 b.
3. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. Учебник. Москва. – 2010. 210 с.
4. Матвеев Л.П. Теория и методика физического воспитания. Учебник. Москва. – 1991. 200 с.
5. Юнусова Ю.М. Основы методики физической культуры. Учебная пособия. Т.,-2005 250 с.
6. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.,- 2005. 300 b.
7. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. Darslik. T.,- 2005. 180 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar. №11.
9. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiya fanidan dastur (bakalavr yo'nalishi uchun). I., 2003.
10. Raxmatova D.N., Xolmurodov L.Z. Jismoniy tarbiyaning didaktik tamoyillari. Uslubiy qo'llanma. T., 2016.
11. Salamov R.S. Jismoniy madaniyat nazariyasiga kirish. O'quv qo'llanma. T.,-1991.
12. Гелецкий В.М. Теория физической культуры и спорта. Учебное пособие – Красноярск: ИПК СФУ, 2008.
13. Наскалов В. М. Теория и методика физического воспитания - Новополюцк: ПГУ, 2008.
14. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. — К.: Олимпийская литература, 2004.
15. Степаненкова Э. Я. Теория и методика физического воспитания и развития ребенка: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений /



Э.Я. Степаненкова. – 3-е изд., стер. – М.: Академия, 2007. – 368с.

16. Фурманов А.Г., Круталевич М.М. Теория и методика физической культуры: Учеб. Пособие. – Минск, 2014

17. Холодов, Ж. К. Теория и методика физической культуры и спорта: учеб. для студентов вузов / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – 10-е изд., испр.

– М.: Академия, 2012. – 480 с.

18. Юнусова Ю.М. Физическая культура общеобразовательной школе. Учебная пособия. Т.,-2004 200 с.

19. Юнусова Ю.М. Основы спортивной тренировки. Учебная пособия. Т.,- 2009. 220 с.

#### Internet saytlari

20. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.

21. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlarimilliy bazasi.

22. <http://www.ziyonet.uz> – O‘zbekiston Respublikasi axborot ta’lim tarmog

### 3.01. Psixologiya (sport)fani dasturining nazariy qismi

#### I.Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda sport psixologiyasi haqidagi bilimlarni shakllantirish hamda sport psixologiyasining umumiy masalalarini sportda o‘rgatish va takomillashtirish psixologiyasini shuningdek, sport faoliyatining ijtimoiy-psixologik omillarini sportchini psixologik jihatdan tayyorlash.

